



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

Chakana Savdo Xizmatlarini Innovatsion Asosda Rivojlantirish

Mamayev To‘Lqin Najmiddinovich

O‘zbekiston Respublikasi, Samarqand viloyati, “Farm Lyuks Invest” MCHJning iqtisodchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada chakana savdo xizmati sohasi rivojlanishining innovatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Chakana savdoning o‘zgaruvchan talablar va yangi texnologiyalar asosida qanday rivojlanayotganini ko‘rsatish maqsadida, maqolada raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, va boshqa innovatsion vositalardan qanday foydalanilayotganligi muhokama qilindi. Yangi texnologiyalar yordamida mijozlarga xizmat ko‘rsatish, mahsulotlarni sotish va chakana savdo jarayonlarini samarali boshqarish imkoniyatlari o‘rganildi. Unda Prezidentning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa muhim hujjatlari doirasida amalga oshirilgan islohotlar yoritiladi. Maqolada, shuningdek, savdo korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ularning samaradorligini ta‘minlashda innovatsion yondashuvlarning o‘rni haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: chakana savdo, innovatsion rivojlanish, raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, iqtisodiy transformatsiya, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, samaradorlik, texnologik innovatsiyalar, savdo jarayonlarini boshqarish.

Kirish. O‘zbekiston iqtisodiyotida savdo faoliyati inson taraqqiyoti va madaniyatining asosi bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda iqtisodiy rivojlanish va savdoning sifatni oshirish uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu jarayon mamlakatning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi¹ doirasida aniq maqsadlar va amaliy rejalar bilan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Mazkur strategiya iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni tezlashtirishga qaratilgan. Chakana tovar aylanishining mohiyatini asosida tovar muomilasida mavjud bo‘lgan munosabatlar yotadi. “Tovar muomilasi to‘g‘risida fikr yuritganda, uning negizida ikki tomonli munosabat yotganligini ko‘ramiz.

Bir tomonda-sotuvchi, tovar egasi, uning maqsadi tovarni sotish, ikkinchi tomondan sotib oluvchi, ya‘ni aholi, qo‘lida qandaydir miqdorda tovarni sotib olish uchun ekvivalent pul bor, tovarni sotib

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida

olish uchun talabi mavjud subektga, agar ikkala intilish, tovarni sotish va sotib olish bir-biriga munosib bo‘lib qolsa, oldi-sotdi jarayoni amalga oshadi va tovar pulga almashadi”² deb keltiradi B.A.

Abdukarimov. Bundan kelib chiqadiki, chakana savdoda tovar muomalasi deyilganda ikki xil tomonni ham e‘tiborga olish lozim.

“Chakana savdo tovar aylanishi – iste‘mol tovarlarining aholiga va boshqa iste‘molchilarga, ularning ehtiyojlarini qondirish maqsadida sotilgan hajmini pul ko‘rinishida ifodalashdir”.³ Ushbu jarayon tovar aylanishining oxirgi bosqichida yuzaga chiqib, tovarlarning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni o‘zgaradi.

Natijada, tovarlar iste‘mol fondining real shakliga aylanib, muomiladan chiqib, iste‘molchining mulkiga o‘tadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi - bu savdo tizimida tovarlarning xarid qilinishi, saqlanishi va sotilishi jarayonlarini ifodalaydi. U asosan iste‘molchilar va chakana savdo nuqtalari o‘rtasida sodir bo‘ladi. Chakana savdoning kelib chiqishi qadim zamonlarga borib taqaladi, misol uchun, miloddan avvalgi davrlarda savdo bozorlarida tovarlar almashinuvi boshlanadi.

Asosiy xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqat o‘rnatilib, turli xil mahsulotlar uchun talab va taklif shakllanadi. Zamon o‘tishi bilan, chakana savdo ko‘chma savdogarlarning savdo usullarini o‘z ichiga olgan va zamonaviy tizimlarga, jumladan, onlayn savdoga o‘tgan. Tovar aylanmasi esa iqtisodiy o‘rnatilishni va iste‘molchilar ehtiyojini qondirishni ta‘minlaydi. Savdo korxonalarini rivojlanishning bozor konsepsiyasiga o‘tishi ularning maqsadli funksiyalarini o‘zgartirib yubordi va bu xo‘jalik jarayonini tavsiflovchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimida o‘z aksini topdi. Bu avvalo chakana savdo aylanmasi ko‘rsatkichlariga taalluqli.⁴

Chakana tovar aylanishi oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarining sotilishini o‘z ichiga oladi. Oziq-ovqat mahsulotlari aholi hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynasa, nooziq-ovqat mahsulotlari iste‘molchilarning turli xil talablarini qondirishda yordam beradi. Ushbu tasnif tovar turlarining chakana savdodagi ulushini aniqlashda qo‘l keladi. Chakana savdoda to‘lov usullari muhim ahamiyatga ega. Naqd pul orqali savdo eng oddiy shakl bo‘lsa, bank cheklari, elektron kartochkalar va kredit orqali savdo zamonaviy texnologiyalarga asoslangan qulayliklarni ta‘minlaydi. Bu tasnif chakana savdodagi moliyaviy munosabatlar mexanizmini tahlil qilish imkonini beradi.

Chakana savdo aylanmasi deganda aholiga sotish kanallaridan qat‘iy nazar naqd pulga iste‘mol tovarlarini sotish tushuniladi. U quyidagilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin:

- A. Savdo faoliyati asosiy faoliyat turi hisoblanuvchi chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini bo‘lgan huquqiy shaxslar (magazinlar, umumiy ovqatlanish korxonalarini va hokazo);
- B. Savdo faoliyati asosiy faoliyat turi hisoblanmagan huquqiy shaxslar tomonidan (firma magazinlari, sanoat korxonalarini qoshidagini magazinlar va hokazo);
- C. Buyum bozori, aralash bozor va sanoat bozoridagi tovarlar bilan savdo qiluvchi jismoniy shaxslar tomonidan.

Jismoniy shaxslar tomonidan buyum bozorlari, aralash bozorlari va sanoat bozorlari orqali sotilgan tovarlar hajmi hududiy statistika organlari tomonidan o‘tkaziladigan maxsus tadqiqotlar yordamida aniqlanadi.

² B.A.Абдукаримов. Ички савдо иктисодиёти. Дарслик.-Т.:«Иqtisod-Moliya», 2010.

³ Пардаев М.Қ. ва бошқ. Савдо иктисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма. - Т.: —Иктисод-молия, 2016

⁴Artikov Z.S., Qarshiyeva M., “Chakana savdoda tovar aylanmasining mohiyati va mazmuni”, Journal of Marketing, Business And Management(JMBM)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- aholiga sotilgan isteʼmol tovarlari qiymati:
- naqd pulga;
- kredit kartochkalariga;
- banklarning hisob cheklariga;
- qoʻyilma egasining hisob raqamidan pul oʻtkazish hisobiga.
- pochta orqali naqdkorxonalar hisob-kitob yoʻli bilan sotilgan tovarlar qiymati;
- tovarning toʻliq qiymati hajmida kreditga sotilgan tovarlar qiymati;
- komissiyaga berilgan tovarlar qiymati;
- namunalar boʻyicha sotilgan uzoq muddat foydalaniluvchi tovarlar qiymati;
- aholining ayrim qatlamlariga chegirma bilan sotilgan tovarlarning toʻliq qiymati;
- obuna boʻyicha sotilgan davriy matbuot nashrlari qiymati;
- tovar narxiga kirmaydigan, lekin sotuv narxiga ega boʻlgan upakovka qiymati;
- sotilgan boʻsh idishlar qiymati.¹⁵

Asosiy qism. Chakana savdo aylanmasi isteʼmolchilarning bevosita shaxsiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida sotib olgan tovarlarning umumiy qiymatini aks ettiruvchi iqtisodiy kooʻrsatkichdir. Ushbu kooʻrsatkich chakana savdo faoliyatida ishtirok etuvchi barcha subyektlar, jumladan, savdo korxonalar, doʻkonlar, bozorlar va boshqa savdo nuqtalarining maʼlum vaqt davomidagi savdo operatsiyalari hajmini oʻz ichiga oladi.

Chakana savdo aylanmasi nafaqat moliyaviy kooʻrsatkich, balki iqtisodiyotni baholash vositasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi, chunki u aholining xarid qilish quvvati, isteʼmol talabi va milliy iqtisodiyotning ichki bozordagi faolligi haqida maʼlumot beradi. Bu kooʻrsatkich asosan naqd pul, elektron toʻlovlar va boshqa toʻlov shakllarida amalga oshirilgan savdo operatsiyalarini oʻzida aks ettiradi va iqtisodiy rivojlanish dinamikasini tahlil qilish uchun muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

1-jadval. Samarqand viloyati tumanlari boʻyicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining oʻsish surʼati (oʻtgan yilga nisbatan foizda)⁶

Hudud nomi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Samarqand viloyati	100,7	105,0	108,1	109,0	115,0	113,5	107,9
<i>shaharlar:</i>							
Samarqand sh.	100,9	110,2	116,4	116,0	116,7	112,0	110,5
Kattaqoʻrgʻon sh.	102,5	104,6	104,4	112,0	112,3	116,6	106,9
<i>tumanlar:</i>							
Oqdaryo	101,1	104,2	99,3	114,9	107,2	101,3	111,2
Bulungʻur	102,4	102,5	101,4	93,2	110,7	107,6	108,9
Jomboy	101,8	106,5	105,3	103,3	120,1	106,4	112,1
Ishtixon	102,2	104,2	111,1	89,4	108,3	111,7	109,5

⁵ Ukollov V.F. Теория управления. М.: ЗАО «Экономика» 2004

⁶ Samarqand viloyati statistika Bosh boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Kattaqo'rgo'on	101,2	104,1	103,3	118,2	114,8	141,7	83,8
Qo'shrabot	102,1	101,4	103,4	111,1	117,7	103,7	107,6
Narpay	101,3	103,3	101,0	115,1	109,5	111,2	108,8
Payariq	102,1	104,7	97,8	101,8	112,5	107,5	104,7
Pastdargo'om	97,8	102,1	101,0	106,3	106,1	112,4	104,6
Paxtachi	100,7	102,0	105,4	104,4	111,9	110,0	112,5
Samarqand	100,5	103,5	122,1	116,4	124,3	128,4	114,4
Nurobod	100,1	102,7	101,9	106,7	110,9	106,1	103,0
Urgut	99,3	101,4	104,3	100,0	115,0	112,1	105,6
Toyloq	99,2	104,1	107,4	99,6	128,7	116,1	116,9

Tahlil natijalariga ko'ra, Samarqand viloyatining umumiy chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2017-yildan boshlab 2021-yilgacha barqaror o'sish sur'atlarini ko'rsatib, ushbu davrda yillik o'sish ko'rsatkichi 100,7% dan 15% ga o'sgan. Bu esa iqtisodiyotda iste'mol talabi va savdo faoliyati rivojlanib borayotganini anglatadi. Biroq, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich biroz pasayib, 13,5% ga tushgan, 2023-yilda esa 7,9% darajasida qayd etilgan. Bu pasayish iqtisodiy o'zgarishlar, jumladan inflyatsiya, iste'molchilarning xarid qobiliyati yoki tashqi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Hududlararo tahlilda Samarqand shahri va Kattaqo'rgo'on shahri boshqa hududlarga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda. Xususan, Samarqand shahrida 2019-yilda 16,4% bo'lgan o'sish sur'ati, 2021-yilda 16,7% gacha o'sdi. Shu bilan birga, Kattaqo'rgo'on shahri ham 2021-yilda 16,6% darajasiga yetib, hududda savdo faoliyatining sezilarli rivojlanishini ko'rsatdi.

Tumannar miqyosida esa Jomboy, Oqdaryo va Bulungo'ur tumanlari barqaror yuqori o'sish ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Masalan, Jomboy tumani 2021-yilda 20,1% ni tashkil qilgan. Biroq, Ishtixon tumani 2020-yilda eng past ko'rsatkichni (89,4%) qayd etdi, bu esa mazkur tumanda savdo faoliyatining sekinlashganidan dalolat beradi.

2024-yilning yanvar-sentabr davri ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, viloyat bo'yicha umumiy o'sish sur'ati 8,5% ni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, ba'zi hududlarda o'sish tendensiyasi sezilarli ravishda tiklanmoqda, xususan, Oqdaryo tumani (9,1%) va Jomboy tumani (9,2%) yetakchilik qilmoqda.

Mazkur jadval ma'lumotlari Samarqand viloyati iqtisodiyotining barqaror o'sishini ko'rsatadi. Ammo hududlararo tafovutlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida hududiy strategiyalarni yanada takomillashtirish zarur.

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 12139 tani tashkil etmoqda, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 ta, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 12105 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yigo'lgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

1-rasm. Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari⁷



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 6577,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 8,0 % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 039,5 mlrd. so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5538,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 10,3 % o'sgan), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 733,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 13,9 % o'sgan) tashkil etdi.

1-grafik. Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi

(2024- yil yanvar-oktabr)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida 34,9% bilan 8837,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Nurobod tumani 1,5 % bilan 392,1 mlrd so'mni tashkil etdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Xulosa. Samarqand viloyatida chakana savdo tovar aylanmasining hozirgi holati va uni ko'paytirish yo'llarini o'rganish natijasida ushbu sohaning hududiy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati keng qamrovda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida viloyatning iqtisodiy, demografik va logistika salohiyatidan samarali foydalanish orqali chakana savdo aylanmasini oshirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Chakana savdo tovar aylanmasining hozirgi holati viloyatning iqtisodiy taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatishini ko'rsatib berdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, savdo korxonalarini tomonidan assortimentni kengaytirish, raqamlashtirish va iste'molchilarga qulay xizmat ko'rsatish tizimlarini joriy etish bozorni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni

⁷ O'zbekiston statistika Bosh boshqarmasi chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari ma'lumotlari asosida tuzilgan

mahalliy sharoitga moslashtirish va elektron tijoratni rivojlantirish orqali ham savdo hajmini sezilarli darajada oshirish mumkinligi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot natijalari viloyat savdo korxonalarining logistika tizimini takomillashtirish, reklama strategiyalarini rivojlantirish hamda bozor tadqiqotlariga asoslangan strategik qarorlar qabul qilish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ekologik toza va sifatli mahsulotlarni targ'ib qilish iste'molchilar ishonchini mustahkamlashda asosiy vosita sifatida qayd etildi.

Davlat tomonidan savdo korxonalariga moliyaviy ko'mak ko'rsatish, soliq imtiyozlarini taqdim etish va infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirilgan chora- tadbirlar chakana savdoning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bularning barchasi nafaqat mahalliy savdoning o'sishiga, balki hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyatidagi chakana savdo tovar aylanmasini oshirish uchun keng qamrovli, tizimli va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat savdo korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki aholi turmush darajasini yaxshilash va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2020-yil 5-oktyabr). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. PQ-6079-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. (2023-yil 2-fevral). AKT infratuzilmasini rivojlantirish va xizmat sifatini oshirish to'g'risida. PQ-20-son.
3. Б.А.Абдукаримов. Ички савдо иқтисодиёти. Дарслик.-Т.:«Иқтисод-Молия», 2010.
4. Пардаев М.Қ. ва бошқ. Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма. - Т.: —Иқтисод-молия», 2016
5. Artikov Z.S., Qarshiyeva M., "Chakana savdoda tovar aylanmasining mohiyati va mazmuni", Journal of Marketing, Business And Management(JMBM) of
6. Ukollov V.F. Теория управления. М.:ЗАО «Экономика» 2004
7. Mirzaev K. The market livestock service of the Republic Uzbekistan // Spanish journal of rural development University of Santiago de Compostela. Volume II, - No 2. Spain. 2011. - P. 97-106.
8. Mirzaev, K. (2011). Approaches and issues for developing livestock services in Uzbekistan. Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 8(2), 23-25.
9. Mirzaev K. J., Rahimov Z. K. CLUSTERING OF AGRO SERVICE //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 731-736.
10. Djanzakovich M. K., Ogli J. B. K. The analysis of impact of factors influencing leadership abilities //湖南大学学报 (自然科学版). – 2022. – Т. 49. – №. 09.
11. Мирзаев Ж. К., Пардаев М. К. Экономика сферы услуг //Руководство.- Т.:«ЭКОНОМИКА-ФИНАНСЫ. – 2014.
12. Djanzokovich M. K. et al. O 'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI //Journal of marketing, business and management. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 52-57.
13. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
14. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.